



5/2024

ISSN: 2181-3418

DOI: 10.59470/123

O'ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

(ilmiy-nazariy, metodik jurnal)



5/2024

ISSN: 2181-3418

JURNAL TAHRIRIYATI

BOSH MUHARRIR:

Madraximova Feruza
Ruzimbayevna
(p.f.d., dots.)

BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI:

Matyoqubov Hikmat
Shuhratovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

S.R.Davletov – t.f.d. prof.
I.S.Abdullayev – i.f.d. prof.
B.Ruzmetov – i.f.d. prof.
J.X.Ataniyozov – i.f.d. prof.
R.M.Matkarimov – p.f.d. prof.
I.Saifnazarov – f.f.d. prof.
M.S.Xajiyeva – f.f.d. prof.
B.S.Abdullayeva – ps.f.d. prof.
E.R.Ro'ziyev – p.f.d. prof.
M.S.Salayeva – p.f.d. prof.
M.O.Atajanova – f.f.d.
S.U.Xodjanliyazov – p.f.d., dots.
D.T.Xudayberganov – i.f.d. dots.
S.T.Davlatova – t.f.d. dots.
U.I.Abdullayev – t.f.d. dots.
M.M.Matyakubova – t.f.n. dots.
X.X.Matyakubov – PhD., dots.
D.Q.G'oyipov – f.f.d. dots.
A.D.O'rozboyev – f.f.d. dots.
B.B.Nurullayeva – ps.f.n. dots.
E.X.Zoyirov – f.f.n. dots.
O.E.Xayitov – ps.f.d. dots.
D.A.Urazboyeva – ps.f.d. dots.
X.R.Matyakubov – p.f.n. dots.
D.Atamuradova – PhD.
Z.Y. Adilov – PhD.
Z.K.Abidova – PhD.
Y.A.Karimov – PhD.

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENTS

PSIXOLOGIYA

- Nurullayeva B. B. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishi va korreksiyasi.....3
- Razakova R. S. Garontologik tadqiqotlarda shaxsning hayot sifati bo'yicha subyektiv qoniqish darajasini baholashning amaliy tahlili.....13
- Raximov B. A. "Yolg'onni aniqlash detektor" (poligraf) ning psixologiya sohalari va tarmoqlarida qo'llanilishining amaliy ahamiyati.....19
- Dustova U.A. Boshlang'ich sinflarda orfografiyani adaptiv o'rgatishning psixologik-pedagogik asoslari.....24
- Norbosheva M. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish.....29
- Yarmatov R.B. Jamoalar faoliyatini samarali boshqaruvida psixologik omillarning o'rni.....36

FILOLOGIYA

- Hazratkuliyon D. F. O'zbekistondagi tojik yoshlari she'riyatiga bir nazar.....43
- Xushmanova G.I. Слово сочетание как номинативная единица языка.....53
- Avezova R.A. Cho'g'ishtirilayotgan tillarda graduonimiya.....58
- Zulpiyeva D. E. Mediatsiya - xorijiy tillarini o'qitishda yangi vosita sifatida.....63
- Toirova Z. O. Tarixiy roman tabiatida Asad Dilmurod mahorati.....69
- Зулпиева Д. Э. Суть понятия «медиация» в обучении иностранным языкам.....77
- Buranova Sh.M., Kurbanbayev O. H., Joldasova R. U. Bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishda elektron ta'lim resurslar.....83
- Kurbanbayev O.H., Nurillayeva I. Y. O'quvchi nutqidagi sheva ta'siri natijasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish (Xorazm va Qoraqalpog'iston shevalari misolida).....88
- Kurbaniyazov R. System characteristics of sports terminology.....93

Muassislar:
Urganch davlat pedagogika
instituti
«Ziyo scientific center» MCHJ

Sahifalovchi va dizayner:
S.Allanazarov
H.Yunusxo'jayev

Tahririyat bilan aloqa:
E-mail: ziyo.scientific@bk.ru
Sayt: www.re-search.uz
Tel: +99899-347-36-05

Manzil:
O'zbekiston, 220100, Urganch
shahri, Gurlan ko'chasi, 1-uy.

**Jurnal 2022-yil 5-mayda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan № 1612 raqami
bilan ro'yxatdan o'tgan.**

Rajapova K. Bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarida o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.....	97
Djalilov M.M. Abbreviaturaning pragmatik xususiyatlari.....	103
Saydaliyeva D.X. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlar.....	107
Nabiyeva N.S. Sog'inch va hijron mavzusidagi she'rlarda lirik kechinmaning badiiy-tasviriy ifodasi.....	115
Asadova Ch.S. Badiiy asar tarjimasida asliyatni saqlash.....	120
Mardonov M.S. O'zbek va amerika hazillarining madaniy o'ziga xosliklari.....	128
Xamidova D.M. Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarning etimologik xususiyatlari.....	137
Marimbayeva L.U. Erkin a'zamning "yozuvchi" hikoyasi tarjimasida uslubiy trop va figuralarning qo'llanilishi.....	146
Axmadaliyeva G. M. Ingliz va o'zbek tillarida "qo'rquv" konseptini verballashtiruvchi birliklarning kognitiv slotlar orqali ifodasi.....	153

IQTISODIYOT

Alikulov G'.A. Drawing up a segmental report in the management account and improving it.....	158
---	-----

PEDAGOGIKA

Mavlonov B. B. O'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishda oila va maktab hamkorligi.....	167
Egamov Y. E. Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati va uning mazmun-mohiyati.....	172

**Jurnal Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining
2024-yil 27-sentyabrdagi 361-son
qarori bilan filologiya va psixologiya
fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.**

Nabiyeva Nodira Saidovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

**SOG'INCH VA HIJRON MAVZUSIDAGI SHE'RLARDA LIRIK
KECHINMANING BADIY-TASVIRIY IFODASI**
(H.Ahmedova she'riyati misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada H.Ahmedovanning sog'inch va hijron mavzusidagi tanlab olingan ayrim she'rlarining badiiyati tahlil va talqin qilingan. Shuningdek, shoiraning poetik mahorati badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishdagi o'ziga xosliklar, ramz, tashbeh, ko'chimdardan o'rinli foydalanib, betakror jumlar tuza olishdagi mahorati hamda ruhiy kayfiyat va holatni badiiy aks ettirishda peyzaj tasviridan ustomonlik bilan foydalana olishi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: sog'inch, hijron, kechinma, peyzaj, tashbeh, ramz, o'xshatish, talmeh, ko'chim.

Набиева Нодира Саидовна
Денауский институт предпринимательства и педагогики
Кафедра узбекского языка и литературы
Преподаватель

**ХУДОЖЕСТВЕННО-ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЛИРИЧЕСКОГО
ПЕРЕЖИВАНИЯ В СТИХОТВОРЕНИЯХ НА ТЕМУ СОГРЕШЕНИЯ И
РАЗЛИЧИЯ**
(на примере поэзии Х.Ахмедовой)

Аннотация: В данной статье анализируется и интерпретируется художественность избранных стихотворений Х.Ахмедовой на тему тоски и эмиграции. Также уделяется внимание таким вопросам, как поэтическое мастерство поэтессы - особенности использования художественных и изобразительных средств, ее умение составлять уникальные предложения, умело используя символы, аллюзии, метафоры, умелое использование ею пейзажной образности в художественном отражении душевной мысли, настроение и состояние.

Ключевые слова: тоска, эмиграция, опыт, пейзаж, аллегория, символ, сравнение, тальме, перемещение и др.

Nabiyeva Nodira Saidovna
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Department of Uzbek Language and Literature
Teacher

**THE ARTISTIC-VISUAL EXPRESSION OF THE LYRICAL EXPERIENCE IN
THE POEMS ON SIN AND DIFFERENCE
(using the example of Kh. Akhmedova's poetry)**

Abstract: This article analyzes and interprets the artistic quality of some selected poems by H. Akhmedova on the theme of longing and migration. Attention is also paid to the poet's poetic skills - the peculiarities of using artistic and figurative means, her ability to create unique sentences by appropriately using symbols, metaphors, and metaphors, as well as her masterful use of landscape images to artistically reflect mental moods and states.

Keywords: longing, migration, experience, landscape, metaphor, symbol, analogy, metaphor, migration.

KIRISH. Bugungi o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyati xazinasini o'z ijodiy namunalari bilan boyitib kelayotgan Halima Ahmedova zamonaviy she'riyatda o'z o'rnini va ovozigacha ega ijodkorlardan biridir. Shoiraning ijodi rang-barang mavzu va ohanglarda tarannum etilganligi, samimiy va inja tuyg'ular bilan yo'g'rilganligi, poetik obraz va badiiy ifoda yo'sinidagi o'zgachalik boisidan adabiyot, she'riyat ixlosmandlarining, qolaversa tadqiqotchilarning ham e'tiborini tobora jalb etmoqda [1.36-b].

O'zbek adabiyoti ayollar she'riyatining davomchisi o'laroq ijod qilayotgan shoiraning she'rlarida o'sha ko'hna tuyg'ularning yangicha tarannumini, eski mavzularning yangicha shaklini, ko'hna qadriyatlarning o'zigagina xos ifodasini tuyamiz. Shuningdek, shoiraning ijodi qanchalik rang-barang mavzularda bo'lmasin, barcha ayollar singari uning ijodida ham ayollar ruhiyatini, qalbini, nafis tuyg'ulari va kechinmalarini yaqqol namoyon etuvchi nazmiy misralar e'tiborimizni tortadi.

Ayniqsa, uch asr muqaddam shoiri Nodirabegim (Mohlaroyim), o'tgan asrlarda Zulfiyaxonim Isroilova va Saida Zunnunovalar she'riyatining bosh mavzusi bo'lgan hijron va sog'inch mavzulari H.Ahmedovaning ham ilk ijod namunalari yetakchi o'rin tutadi. Qolaversa, shoiri ijodida boshqa ayol shoiralar ijodida ham tez-tez uch keladiganimiz iltijo motivi va lirik kechinmalarining jozibador badiiy ifodasi o'zining tabiiyligi, samimiyligi, poetik obraz va tashbehlariga boyligi bilan ham e'tiborlidir.

ADABIYOTLAR SHARHI. 1960 yil 1 oktyabrda Buxoro viloyatida tug'ilgan Halima Ahmedovaning bugungi kunga qadar "Ko'zimning tili" (1986), "Tungi marvaridgullar" (1987), "Erk darachasi" (1996), "Tiyramoh" (2005), "Afsun" (2007), "Umid soyasi" (2008), "Shafaq ibodati" (2011), "Yosuman gulining soyasi" (2013) kitoblari chop etilgan. Shuningdek, shoiraning, "Ko'nglim", "Sen meni ishontir", "To'kilma jonim" [2, B.134] kabi qator she'rlari, allaqachon, qo'shiq qilib kuylanib, muxlislar qalbidan joy olib ulgurgan. O'z she'rlaridan birida "Haq va muhabbatga xudo bo'laman" degan shoiraning ko'pchilik she'rlarida ming yillardan beri satrlarga tizilgan o'sha qadim iztiroblar, sog'inch, hijron, iltijo kabi an'anaviy motivlar balqib turadi. Jumladan, shoiraning "Tunning yuragini kemirgan sog'inch", "Boshdan oyog'im nur",

“Bog‘larda oqmoqda avgustning qalbi”, “Tun yarim, shovqinning tili kesilgan” kabi qator she‘rlari shular jumlasidandir. Sog‘inch va hijron azobida qalbi o‘rtanayotgan lirik qahramonning iztiroblari quyidagi jumalalarda go‘yo peyzaj misolidagi ramziy tasvirlarda aks etadi [3, B.13].

Boshini osmonga tutgan teraklar,
Naqadar mag‘rurdir naqadar yolg‘iz.
Arazlagan injiq bolaga o‘xshar,
Ariqlar labida xurpaygan yolg‘iz. [4, B.34]

Shoira go‘yo peyzaj tasvirini chizayotgan ko‘rinsa-da, aslida, bu tabiat chizgilarida lirik qahramonning kechinmalari, hijroni yashirin bo‘y ko‘rsatib turadi. Shoira teraklar qanchalik mag‘rur, boshi osmonda bo‘lmasin, ularning yolg‘iz ekanligiga urg‘u berar ekan, shu o‘rinda lirik “Men” o‘zini qalban terakka qiyos etadi. Lirik qahramon ham odamlarning ko‘zida qanchalik mag‘rur, boshi osmonga yetgan, g‘am-anduxsiz, baxtli ko‘rinsa-da, ammo u uning qalbi yolg‘izlik va hijron azobidan iztirob chekmoqda.

MAZMUNI: Keyingi misralarda shoira ariqlar labidagi xurpaygan yalpizlarni arazlagan injiq bolaga qiyoslab, betakror tashbeh yaratadi, ammo bu o‘xshatishlar tom ma‘noda ramziy bo‘lib, xurpaygan yalpiz misolida lirik qahramonning qalbi namoyon bo‘ladi. She‘riyatda, qalbni, yurakni (quv, shum, hurkak, arazchi) bolaga o‘xshatish barchamizga tanish hol. Shoira teraklar misolida lirik qahramonning tashqi ko‘rinishi, suratini ramzlashtirsa, xurpaygan yalpiz misolida uning kimnidir sog‘ingan, sog‘inchdan azob chekayotgan, bu holga tushgani uchun esa go‘yo sof, beG‘ubor go‘dak kabi lirik qahramondan arazlab, o‘pkalayotgan qalbi juda ta‘sirchan tarzda ifodalanadi[5, B.34].

Shoira ko‘z bilan ko‘rib, so‘z bilan tushuntirib berish amri mahol yoki umuman iloji bo‘lmagan har qanday holatlarni ham shunday inja tashbehu ramzlar misolida betakror jumalarga o‘rab o‘quvchiga soddagina shaklda yetkazish imkonini topadi. Quyida yana she‘rning davomiga e‘tibor qaratamiz.

O, bu dam, Ayyubning sof chashmasida
Cho‘milgan pariday yayrar tuyg‘ular.
Sog‘inch, sekin kuyla...
uyg‘onmasinlar –
Yuragimda mudrab qolgan qayg‘ular.

Shoira bu bandda talmeh san‘atiga murojaat qilib, adabiyotda sabr timsoliga aylangan, qirq yil qurt kemirgan Ayyub (a.s.)ni esga oladi[6, B.34]. Uning tuyg‘ulari uzoq vaqt poyonsiz hijron azobida qolgan bo‘lsa-da, sabr chashmasida raqs tushgan parilar yanglig‘ baxtli, chunki bu tuyg‘ularda umid uchqunlari hali o‘chmagan. Sabr bilan umid yonma-yon yuradi umid bo‘lgan joyda sabr yashaydi, umid uzilgani on, sabr kosa ham to‘ladi. Lirik qahramon esa sabrda shunchalik matonatliki, chidamligi, o‘zining bu sabrini Ayyub bilan qiyos etadi, bu o‘rinda biroz mubolag‘aviylik sezilsa-da, hayotda bo‘lishi mumkin ekanligi sababidan o‘quvchini e‘tiborini unchalik tortmaydi.

NATIJALAR: Ana shunday lazzatli shirin hijron azobi ham uning uchun totli bir ne‘matki, lirik qahramon bevosita soG‘inchga murojaat qilib, sekin kuylashini,

yuragidagi mudrab qolgan qolgan qayG'ularini uyg'onib qolmasligini o'tinadi. Sog'inch, hijron bor joyda visol lazzatidan zarracha bo'lsa-da umid ham bo'ladi, lirik "men" o'sha lazzatli umidli soG'ichni qayg'ulariga yem qilgisi kelmaydi. Shu o'rinda ushbu she'r shoironing "Umid soyasi" to'plamidan olinganligini ham eslatib o'tish o'rinlidir[7, B.55].

Daraxtlar bag'rida yaproqlar uxlar,
Daryolar bag'rida irmoqlar uxlar,
Dalalar bag'rida so'qmoqlar uxlar,
Mening ham uxlagim kelar bag'irda
Umidning ko'ksida visol uxlaydi,
Men sevgan baG'irda ayol uxlaydi,
Ko'zlarimda ma'yus savol uxlaydi:
Men qayerda uxlay?!

H.Ahmedovanning 1988 yilda chop etilgan "Tungi marvaridlar" to'plamidan joy olgan ushbu she'rda hijron va umid, sog'inch va visol motivlari paralel tasvirlanadi. Lirik qahramon bu she'rda ham yana o'zining holatini, tabiat bilan solishtiradi, ammo bu safar tabiatda baxtni, visolni ko'radi. Tabiatda har narsaning o'z o'rni, panoh topgan muqim maskani, hotirjam "bosh qo'yib uyquga ketadigan bir bag'ri" borligini ko'rib, o'z holidan iztirobga tushadi va ikkinchi bandda o'zining ayni vaqtdagi holatini tabiatdagi tenglikka qarama-qarshi qo'yib o'ksinadi. Shu o'rinda biz yana umid va visol tushunchalarining ziddiyati bilan qarshilashamiz[7, B.34]. Lirik qahramon o'z yorining bag'rida o'zga ayolning uxlayotganini bilsa-da, baribir visol lazzatidan umid qiladi, axir uning uchun hotirjam va tinch bosh qo'yib, uxladigan boshqa bir bag'ir yo'q. Qachonlardir bu oromni ayni shu bag'irning og'ushida his qilgan lirik "Men" u kunlarni qo'msaydi, sog'inchdan qalbi titraydi.

Tun yarim. Sen bo'lsang to'lar edi u,
Ko'ksimda ijara turarkan ilinj
Nogahon chanqatib qo'yadi meni
Sening ko'zlarindan to'kilgan sog'inch.

Shoironing ushbu she'rda sog'inch yana hijronni yetaklab keladi. Lirik qahramon uchun hijronli kechalarning o'tishi og'ir. Shoir "Tun yarim" deganda so'z o'yini iyhomdan foydalanib, birinchi ma'noda lirik qahramonning ayni kayfiyati ifodalanayotgan badiiy vaqt, ikkinchi ma'nosida esa lirik qahramonning yolg'izligiga ishora qilinadi[8, B.390]. Endi bu she'rda lirik "men"ning umidlari sitila boshlagan – "Ko'ksimda ijara turarkan ilinj", deya yozarkan, uning umidlari endi ilinjga aylangan, uning uzoq yashashi dargumon. Ammo lirik "Men" o'zi sog'inib kutayotgan ma'shuqining ham ko'zlarida huddi o'ziniki kabi sog'inch ko'z-yoshlarini eslar ekan, uning umidlari yana jonlanadi, sog'inchi yana jonlana boshlaydi.

XULOSA. Shoir oxirgi misrada metanimiyadan mohirlik foydalanib, she'rning jozibadorligini, betakrorligini yana-da oshirish bilan bir qatorda ta'sir quvvatini ham ko'chimlar bilan to'yintiradi: "Sening ko'zlarindan to'kilgan sog'inch", deya yozarkan, sog'inch, iztiob ko'z-yoshlarini to'liq yozib o'tirmasdan, metanimiya ko'chimi asosida

qisqa va lo'ndalikka intilgan holda, jumladagi badiiy ta'sirchanlikni ham saqlab qolib, bu holni birgina "sog'inch" deya atab qo'ya qoladi. Ayni misralar she'rning uchinchi misrasidagi "chanqamoq" leksemasi bilan shunchalik uyg'unlashib ketadiki, bunda ikkinchi bir ko'chimni yuzaga keltirganini ham sezmay qolamiz. [10, B.109] Ya'ni "sog'inmoq" holat leksemasi ko'chma ma'noda "chanqamoq" holat fe'li bilan, ko'z-yoshlar esa badiiy ko'chim asosida "sog'inch" deya atalib, yaxlit holda mukammallik kasb etib, betakror mazmunni o'zida ifoda etgan.

Shoiraning bu va boshqa hijron va sog'inch mavzulari qalamga olingan she'rlarida lirik kechinmaning betakror oniy ifodasini ko'rish mumkin. uning she'rlarida hijron bilan umid yonm-yon yuradi, har bir misrada sog'inch bilan birga umid tomchilari o'z in'ikosini topadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2017 yil, 4 avgust. №32.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asosolari. — Toshkent: Akademnashr, 2018. 480 b.
3. Ahmedova H. Umid soyasi. She'rlar. — Toshkent: "Nihol" nashriyoti, 2008. 168 b
4. Ahmedova H. Tungi marvaridlar. She'rlar. — Toshkent: G'.G'.nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 74 b.
5. Xurshid Davron. Xurshid Dostmuhammadni o'qib. | Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)
6. Ахмедова Х. Мени изла. — Тошкент: Шарқ, 2019. — 224 б.
7. Ахмедова Х. Соғинч фасли. — Тошкент: Ёзувчи, 2015. — 190 б.
8. Муминов А. Ўзбек лирикасида ички кечинмалар ифодаси. — Тошкент: Фан, 2005. — 300 б.
9. Раҳимов И. Бадий тасвир назарияси. — Тошкент: Маънавият, 2010. — 240 б.
10. Юсуфов А. Лирика ва эстетика. — Тошкент: Ўқитувчи, 1998. — 320 б.